

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

**ZAMONAVIY SAVDO TERMINLARINI INGLIZ TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMA
QILISHNING MUAMMOLI JIHATLARI**

Bozorova Sevara Kamol qizi
Qarshi davlat universiteti
Ilmiy rahbar – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M. B. Nizomova

Globalizatsiya jarayonlari va raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi savdo terminologiyasida sezilarli yangilanishlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, elektron savdo, internet marketing, raqamli to‘lovlar va kriptovalyuta kabi sohalar bilan bog‘liq ko‘plab yangi atamalar ingliz tilidan boshqa tillarga, jumladan o‘zbek tiliga ham kirib kelmoqda. Ushbu atamalar tilimizga turli usullarda o‘zlashtirilmogda, biroq bu jarayon terminlarning izchilligi va ekvivalentligi bilan bog‘liq muammolarni yuzaga chiqaradi. Mazkur tezisning maqsadi – zamonaviy savdo terminlarining o‘zbek tiliga kirib kelish xususiyatlarini tahlil qilish va ularning tarjimasida uchraydigan muammolarni ko‘rsatib berishdir.

Hozirgi davrda savdo terminologiyasining shakllanishida eng muhim manba ingliz tili hisoblanadi. Global iqtisodiy tizimning asosiy hujjatlari, xalqaro shartnomalar, internet platformalari va elektron xizmatlarning aksariyati ingliz tilida yuritilgani sababli yangi atamalar shu til orqali tarqaladi. Natijada zamonaviy savdo bilan bog‘liq ko‘plab tushunchalar ingliz tilidan o‘zbek tiliga bevosita yoki bilvosita kirib kelmoqda.

Zamonaviy savdo terminlari ingliz tilidan o‘zbek tiliga bir necha usullar orqali o‘zlashtirilmogda. Eng ko‘p uchraydigan usullardan biri to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirishdir. Masalan, dropshipping, startup, vaucher kabi so‘zlar asosan fonetik va grafik shaklini saqlagan holda qo‘llanadi. Bu usul yangi atamani tezda ishlatishga imkon bersa-da, o‘zbek tilidagi izohli tushuntirish bilan boyitilmasa, keng omma uchun tushunarsiz bo‘lib qolishi mumkin.

Ikkinchi usul – kalkalash (calque), ya‘ni terminni so‘zma-so‘z tarjima qilishdir. Masalan, ingliz tilidagi checkout cart atamasi o‘zbekchaga savdo savatchasi tarzida tarjima qilinadi. Shuningdek, online store → onlayn do‘kon, digital wallet → raqamli hamyon misollarini ham keltirish mumkin. Bu usul terminning mazmunini aniq yetkazsa-da, ba‘zi hollarda ifoda qiyin va sun‘iy ko‘rinishi mumkin.

Uchinchi usul tavsifiy tarjima bo‘lib, ekvivalenti yo‘q terminlarni tushuntirish orqali o‘zlashtirishni nazarda tutadi. Masalan, Buy Now Pay Later (BNPL) atamasi o‘zbekchada hozir sotib ol, keyin to‘la shaklida qo‘llanadi. Yana bir misol sifatida crowdfunding atamasini jamoaviy moliyalashtirish deb berish mumkin. Bu usul terminning mazmunini kengroq yoritadi, biroq ba‘zan tarjimadagi so‘zlar soni ko‘payib ketadi.

Zamonaviy savdo terminlarini ingliz tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashtirish jarayonida qator muammolar yuzaga chiqadi. Eng avvalo, polisemiya va semantik bo‘shliqlar masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, ingliz tilidagi trade so‘zi bir vaqtning o‘zida “xalqaro savdo”, “kasb” yoki “ayirboshlash” ma‘nolarida qo‘llanadi. O‘zbek tilida esa bu ma‘nolar turli leksemalar orqali ifodalanadi va yagona so‘z bilan qamrab olinmaydi.

Bundan tashqari, terminlarning ko‘pincha vositachi til – rus tili orqali kirib kelishi ham izchillikka salbiy ta‘sir qiladi. Masalan, broker termini rus tili orqali o‘zlashib, o‘zbekchada ba‘zan broker, ba‘zan esa dallol tarzida ishlatiladi. Shu sababli terminlarning yagona shaklini tanlash masalasi hal etilmay qolmoqda.

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

Frazeologik birikmalar va kollokatsiyalar ham tarjima jarayonida muammolarni yuzaga keltiradi. Ingliz tilidagi trade union, fair trade, out of stock kabi iboralar faqat to‘liq birikma sifatida tarjima qilingandagina to‘g‘ri ma‘no beradi. O‘zbek tilida esa savdo markazi, savdo majmuasi, savdo siri kabi o‘ziga xos iboralar mavjud bo‘lib, ular ingliz tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilinsa, asl ma‘noni to‘liq ifodalamaydi.

Stilistik farqlar ham alohida e‘tibor talab qiladi. Masalan, ingliz tilidagi merchant so‘zi ko‘proq tarixiy yoki rasmiy ohangda ishlatilsa, trader zamonaviyroq ma‘noga ega. O‘zbekchadagi savdogar esa ko‘proq xalqona ruhni ifodalaydi. Shunday qilib, har bir ekvivalent nafaqat semantik, balki stilistik jihatdan ham mos kelishi zarur.

Yuqoridagi muammolar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy savdo terminlarini tarjima qilish nafaqat lingvistik, balki metodologik va madaniy masalalarni ham o‘z ichiga oladi. Shuning uchun lug‘at tuzishda polisemiya, izchillik, frazeologiya, uslubiy farqlar va qisqartmalarni to‘g‘ri hal etish, shuningdek, yangi terminlarni tezkor ravishda integratsiya qilish juda muhim hisoblanadi.